

“TASDIQLAYMAN”

**Tog‘-kon sanoati va geologiya
vaziri – Xavflar qo‘mitasi raisi**

B. Islamov

“27” fevral 2026 yil

O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi faoliyatiga oid “yuqori”
va “o‘rta” darajadagi xavflar aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha
2025-yilda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

HISOBOT

I. “Xavflarni boshqarish” qo‘mitasining ishchi organi tomonidan tayyorlangan
vazirlikning 2025-yil uchun tasdiqlangan xavflar reestri hamda ularni bartaraf etish
bo‘yicha chora-tadbirlar rejasining ijrosi to‘g‘risida ma‘lumotlar ko‘rib chiqildi.

Xususan,

Topshiriqqa muvofiq xavflar qo‘mitasi tomonidan vazirlik faoliyatiga oid
bo‘lgan 12-banddan iborat bo‘lgan xavflar reestri hamda ularni kamaytirish (oldini
olish va bartaraf etish) yuzasidan chora-tadbirlar rejasini tasdiqlanib ijroga qaratilganligi.

Ishchi organ tomonidan chora-tadbirlar rejasining joriy yilning
4-choragida bajarilishi bo‘yicha tarkibiy bo‘linmalardan olingan ma‘lumotlar ko‘ra,

Geologiyani moliyalashtirish va texnik siyosat boshqarmasiga tegishli bo‘lgan
xavflarda joriy yilning 4-choragida ham o‘zgarishlar kuzatilmagan va xavf bahosi
o‘zgarmaganligi;

Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish boshqarmasiga tegishli bo‘lgan,
xavflar bahosida o‘zgarishlar kuzatilmagan hamda amalga oshirilgan chora-tadbirlar
natijasida xavf yuzaga kelmaganligi;

Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limiga tegishli bo‘lgan,
xavflarni kamaytirish (oldini olish va bartaraf etish) yuzasidan chora-tadbirlar rejasida
belgilangan vazifalar amalga oshirilganligi natijasida barcha xavflar bahosi o‘rtadan
pastga tushganligi;

Gidrogeologiya, muhandislik geologiyasi va geoekologiya bo‘limiga tegishli
bo‘lgan, xavflarida ham o‘rganilayotgan davrda o‘zgarishlar kuzatilmaganligi ma‘lum
qilindi.

Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limiga tegishli bo‘lgan,
xavflarni kamaytirish (oldini olish va bartaraf etish) yuzasidan chora-tadbirlar rejasida
belgilangan vazifalar amalga oshirilganligi natijasida barcha xavflar bahosi o‘rtadan
pastga tushganligi munosabati bilan mazkur bo‘limni rag‘batlantirish tavsiyasi berildi.

II. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil
29-apreldagi “Davlat moliyasi sohasida xavflarni boshqarish tizimini samarali tashkil
etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 279-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror) ko‘ra,

Tarkibiy bo‘linmalar xavflarni boshqarishda:

o'z faoliyatiga oid xavflarni mazkur Nizomda belgilangan tartibda aniqlaydi va baholaydi hamda ularning reestrini shakllantirishi;

xavflarni kamaytirish (oldini olish, bartaraf etish) bo'yicha chora-tadbirlar rejasi loyihasini ishlab chiqishi va uning bajarilishini ta'minlashi;

xavflar monitoringini yuritishi;

har chorak yakuni bilan chora-tadbirlar rejasining bajarilishi bo'yicha Qo'mitaga ma'lumotlar taqdim etib borishi;

xavflarni boshqarish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot tayyorlashi;

normativ-huquqiy hujjatlar va huquqni qo'llash amaliyotidagi xavflarning yuzaga kelishiga imkon beruvchi ziddiyatlarni bartaraf etishi, tegishli normalarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishi;

xavflarni kamaytirishni (oldini olish, bartaraf etish) nazarda tutuvchi istiqbolli yo'nalishlarni belgilash borasida takliflar ishlab chiqishi;

tarkibiy bo'linmalar har chorak yakuni bilan keyingi oyning 10-sanasiga qadar chora-tadbirlar rejasi ijrosi yuzasidan ishchi organga ma'lumot taqdim etib boradi va ma'lumotlarning ishonchliligi va to'g'riligiga tarkibiy bo'linmalar javobgar hisoblanadi.

Shuningdek, xavflar reestri tarkibiy bo'linmalar tomonidan har yili 20 yanvarga qadar Qo'mitaning ishchi organiga umumlashtirish uchun taqdim etishi, ishchi organ xavflar reestrini umumlashtirishi hamda besh ish kuni ichida qo'mitaga ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritishi yuklatilgan.


Qaror da belgilangan tartibga muvofiq vazirlik tarkibiy bo'limlari tomonidan xavflar reestri shakllantirilib, ularni bartaraf etish chora-tadbirlar rejasi qo'mitaning ishchi organiga umumlashtirish uchun taqdim etildi.

Taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra 2026-yil uchun tarkibiy bo'linmalardan vazirlik faoliyatiga oid bo'lgan 71-nomdagi xavflar reestri hamda ularni kamaytirish (oldini olish va bartaraf etish) yuzasidan chora-tadbirlar rejasi shakllantirilgan bo'lib muhokamaga kelib tushgan.


Jumladan, xavf bahosi past bo'lgan 9 ta, xavf bahosi o'rta bo'lgan 53 ta va xavf bahosi yuqori bo'lgan 9 ta xavflar aniqlangan.


Yuqoridagilarni inobatga olib, sohada 2026-yilda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar reestri hamda xavf bahosi o'rta va yuqori bo'lgan xavflarni kamaytirish (oldini olish va bartaraf etish) yuzasidan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi va ijroga qaratildi.

Xavflarni boshqarish
qo'mitasi ishchi organi

 A. Sadikov

Qo'mita a'zolari:

 R. Yusupov

 N. Tuxtamisheva

 Yu. Xodjamov

 Sh. Sag'dullaev